

ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONALAR VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


*2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(2015-2020-yillar 1-fevral holatiga ko'ra, fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, 34 578 tani tashkil etib, ulardan 31 287 tasi yoki 90,5% faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 5 097 taga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar oyida viloyatimizda 647 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 taga ko'pdir.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

20 853



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 642



Oilaviy korxona

216



Unitar korxona

6 496



Xususiy korxona

40




Aksiyadorlik jamiyati

421




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



xususiy korxona birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra)


birlik




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




107,7%




Sanoat




122,1%




Qurilish




115,9%




Savdo




124,4%




Tashish va saqlash




112,8%




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




132,8%




Axborot va aloqa




107,7%




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




118,5%




Boshqalar




107,8%




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-fevral holatiga ko'ra)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda




2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, 26 476 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 096 ta, oilaviy korxonalar – 1 568 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 19 267 ta, unitar korxonalar – 189 ta, aksiyadorlik jamiyati – 37 ta va boshqalar – 319 tani tashkil etgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (2015-2020-yillar yanvar oyida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy sonidagi ulushi



2020 yil yanvar oyida 647 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,8 foizga o'sgan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 473 ta, xususiy korxonalar – 25 ta, oilaviy korxonalar – 129 ta, muassasalar – 12 ta va boshqalar – 8 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlar tarkibi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




01.02.2019 y.



01.02.2020 y.




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 6 649 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,0% ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 116,8% ga (jami sanoatdagi ulushi 95,7%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 138,8% ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 108,6% ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6%) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 113,7% ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0%) o'sishidir.


Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 787 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,9% ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ko'payishining asosiy omili bo'lib, fuqarolik obyektlarini qurish – 143,1% ga (jami qurilishdagi ulushi 6,3%), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 152,5% ga (jami qurilishdagi ulushi - 24,8%) o'sishidir.

Binolar va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 99,2% ni (jami qurilishdagi ulushi 68,9%) tashkil etadi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8 317 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,0% ga oshdi.

Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 117,1% ga (jami savdodagi ulushi 65,0%), avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 106,8% ga (jami savdodagi ulushi 28,4%), avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 159,2% ga (jami savdodagi ulushi 6,6%) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

732

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

7

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

20

Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



113

yashash bo'yicha xizmatlar




1 542

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 655 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 121,4% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,2%), yashash bo'yicha xizmatlarning – 2,2 martaga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,8%) o'sishidir.


Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 508 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,2% ni tashkil qildi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar sonidan, kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 96,4% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 5,3%), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 97,8% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,7%), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 95,8% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 31,3%), aloqa xizmatlarning – 84,4% ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 42,5%) kamaygan.

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, 1 642 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 034 taga yoki 2,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 568 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 990 taga yoki 2,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 74 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 44 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni, birlikda




Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, 20 853 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 269 taga yoki 125,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 267 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 193 taga yoki 119,9% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 586 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 076 taga yoki 3,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

01.02.2020 y.




- Savdo
- Sanoat
- Boshqa turlari
- Qurilish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


01.02.2019 y.



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,
2018-2020-yillar 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda**



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10 951 ta), Asaka (2 956 ta), Shahrixon (2 177 ta), Andijon (1 995 ta) va Qo'rg'ontepa (1 548 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Andijon viloyati	310	166	144
Oltinko'l	17	12	5
Andijon	26	20	6
Baliqchi	9	3	6
Bo'ston	8	5	3
Buloqboshi	12	6	6
Jalolquduq	8	4	4
Izboskan	8	5	3
Ulug'nor	5	3	2
Qo'rg'ontepa	8	6	2
Asaka	16	10	6
Marhamat	12	6	6
Shahrixon	22	8	14
Paxtaobod	7	3	4
Xo'jaobod	14	9	5
Andijon sh.	124	58	66
Xonobod sh.	14	8	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 124 ta (jamidagi ulushi 40,0%), Andijon 26 ta (8,4%) va Shahrixon tumanlarida 22 tani (7,1%) tashkil etgan. Eng kami Ulug'nor 5 ta (1,6%), Paxtaobod 7 ta (2,3%), Bo'ston, Jalolquduq, Izboskan, Qo'rg'ontepa tumanlarida 8 tadan (2,6%) hamda Baliqchi tumanida 9 tani (2,9%) tashkil etadi.

Andijon viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	67	33	34
Qirg'iz Respublikasi	32	15	17
Qozog'iston Respublikasi	7	3	4
Belarus Respublikasi	5	4	1
Ukraina Respublikasi	3	0	3
Ozərbayjon Respublikasi	3	1	2
Tojikiston Respublikasi	1	0	1
Turkmaniston Respublikasi	1	1	0

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991 yil 8 dekabrda MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991 yil 21 dekabrda mazkur Bitim Protokoli asosida tashkil qilingan.

Ozərbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarussiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina Respublikasi MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 21,6 %, Qirg'iz Respublikasi 10,3 %, Qozog'iston Respublikasi 2,3 %, Belarus Respublikasi 1,6 %, Ukraina Respublikasi 1,0 % va Ozərbayjon Respublikalarida 1,0 % ga to'g'ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida taqsimoti, %



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Andijon shahri 7 484 ta (jamidagi ulushi 38,8%), Asaka 1 432 ta (7,4%), Shahrixon 1 386 ta (7,2%), Andijon 1 283 ta (6,7%), Izboskan 894 ta (4,6%), Qo'rg'ontepa 857 ta (4,4%), Oltinko'l 816 ta (4,2%) va Xo'jaobod tumanlari 805 ta (4,2%) hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamroq o'sishi Ulug'nor 280 ta (1,5%), Bo'ston 321 ta (1,7%), Xonobod shahri 400 ta (2,1%), Buloqboshi 470 ta (2,4%), Jalolquduq 665 ta (3,5%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida kichik korxona va mikrofirmalarning faollik holatlari bo'yicha tarkibi, % da




2020-yil 1-fenral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 26 342 tani tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,9 % ga ko'pdir. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahri (9 824 ta), Asaka (2 559 ta), Shahrixon (1 812 ta) va Andijon (1 714 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Ulug'nor (370 ta), Bo'ston (521 ta), Xonobod shahri (524 ta), Buloqboshi (671 ta), Jalolquduq (830 ta), Paxtaobod (932 ta) hamda Xo'jaobod (942 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.02.2019 yil	01.02.2020 yil
Andijon viloyati	792 250	23 459	26 476
Oltinko'l	49 201	1245	1 146
Andijon	68 443	1 586	1 722
Baliqchi	52 241	1 165	1 175
Bo'ston	17 985	547	524
Buloqboshi	35 040	560	673
Jalolquduq	45 701	812	834
Izboskan	58 964	1 039	1 079
Ulug'nor	15 583	424	375
Qo'rg'ontepa	54 166	1 000	1 218
Asaka	82 576	2 244	2 570
Marhamat	44 284	1 044	1 046
Shahrixon	76 354	1 499	1 816
Paxtaobod	52 754	743	936
Xo'jaobod	25 803	775	945
Andijon sh.	102 609	8 415	9 888
Xonobod sh.	10 546	361	529

** 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*


2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Asaka (56 ta), Andijon shahri (26 ta), Buloqboshi (12 ta), Xonobod shahri (9 ta), Bo'ston (9 ta) hamda Andijon (8 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Shahrixon (1 ta), Oltinko'l (4 ta) va Qo'rg'ontepa (4 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

soni, birlikda



o'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header includes the national emblem, the committee's name in Uzbek and English, and navigation links. A dropdown menu is open under 'INTERAKTIV XIZMATLAR', highlighting 'Korxona pasporti' (Enterprise Passport). The form itself is titled 'Korxona pasporti' and includes fields for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code) and 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from photo). A sample photo of a passport with the number '99831k' is shown. A 'Qidiruv' (Search) button is at the bottom right of the form. The left sidebar lists 'RASMIY STATISTIKA' services, and the right sidebar lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' (Useful Information).

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.: 74-228-29-74